TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Saydullayev J. Ya SamDCHTI (PhD)

Annatasiya: ushbu maqolada talabalarda ilmiy dunyoqarashni shaklantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kirish:

Jahonnong ilmiy markazlarida ta'lim sifatini oshirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga bag'ishlangan ko'plab zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib, yechimlari ishlab chiqilgan bo'lsada, o'quv faoliyatining o'ziga xos mexanizmlari va turli guruhlardagi talabalarni o'qitishning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish dolzarbligicha qolmoqda. Oliy ta'lim va ilmiy muassasalarida ilmiy dunyoqarash, mustaqil fikrlash, aqliy salohiyat muammolarini uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatiga asos sifatida qaralib, uni intellektual shakllantirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Global Creativity Index (GCI) ning hisobotida keltirilishicha ilmiy-amaliy, ijod sohasini qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ilmiy dunyoqarash shakllantirish ko'rsatkichi o'sganligi bilan tavsiflanadi. Bu borada, axborotlar tezkor almashinuvi, informatsion xilma-xillik sharoitida talabalar ta'limini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'limning modernizatsiyalashgan usullarini qo'llash, intellektual salohiyatini kuchaytirish orqali intellektual yoshlar jamoasini shakllantirish, iqtidorli talabalarni kompetentli etib tayyorlash, talabalar intellektini shakllantirishda o'quv maskanlarining ta'lim sharoitini o'zgartirib o'qitishni tashkil etishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlar doimo davlat va jamiyat diqqat markazida ekanligi sababli mustahkam huquqiy asosga ega kuchli yoshlar siyosati olib borilmoqda. «O'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashg'ulotlarda qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rishi,

pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi shart» ekanligi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, o'quv samaradorligi va talabalar o'zlashtirishini oshirishga qaratilgan psixologik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Bizning tadqiqot ishimizda talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga oid ilmiy izlanishlar dunyoning ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan olib borilgan izlanishlarninig empirik ma'lumotlari tahlili qilingan. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammosi o'zbek psixologlaridan B.S.Abdullayeva, Y.M.Asadov, M.G.Davletshin, Z.T.Nishonova, A.M.Nazarov, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziyev va boshqalar bilan bir qatorda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari va xorij olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.B.Brushlinskiy, L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, V.P.Deliya E.V.Sinisina, D.H.Dodd, R.E.Fancher, J.Gilford, U.Neisser, W.Schneider, S.Spearman, E.P.Torrens, M.A.Wollach, N.Kogan hamda boshqalarning ilmiy izlanishlari tahlili berilgan. Xorij olimlaridan A.Maslou, K.Rodjers, R.Bendler, D.Grinder, D.Karnegi, M.Atkinson, T.York, Ch.Gibson va S.Ranklin, Hansen, L.Stephen, P.A.Gore, A.Bandura, Z.Assadjioli, P.R.Pintrich, R.A.Kusurkar, T.H.Bailey, R.M.Ryan va boshqalarning ilmiy ishlarida talabaning shaxsiy, hissiy va kognitiv xususiyatlarini shakllantirish, o'quv faoliyati ko'rsatkichlari, o'z-o'zini o'rganish qobiliyati, tashqi pedagogik-psixologik sharoitlarning ta'siri, ta'lim dasturi va o'qituvchining kasbiy mahorati, tashqi qo'shimcha tajribaning o'quv jarayoniga ta'siri, o'zlashtirishni pedagogik va psixologik mezonlari, o'z bilim, ko'nikma va mahoratlarini namoyish etish qobiliyatlari tahlil etilgan.

Tadqiqotimizning maqsadi talabalarda ilmiy dunyoqarashni shaklantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Natija va muhokama.

Bizning tadqiqot ishimizda talabalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlanishida yuzaga keluvchi muammolarni pedagogik-psixologik yechimlari hamda tadqiqot obyektlaridan olingan natijalarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Bugungi kunda talabalarni ilmiy dunyoqarash darajasini o'rganish ularni o'quv faolligini oshirish masalalariga alohida etibor qaratilmoqda. Shu sababli tadqiqot ishimizda talabalarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, qobiliyatlar tizimini shakllantirish milliy ta'lim tizimini jahonda munosib o'z o'rinni egallashga qaratilgan zamonaviy tizimni yaratish tadqiqotimizda ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bunday vazifalarni talabalarda bor imkoniyatni aniqlab, uni rivojlantirmasdan hal etib bo'lmaydi. Shu boisdan, talabalarni fikrlash darajasiga ta'sir etuvchi omillar asosida ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomamiz orqali tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalardan eksperimentdan oldin hamda keyingni natijalarni tahlillarini keltirdik.

1-jadval

Talabalardagi ilmiy dunyoqarash qobiliyatlari aniqlash so'rovnomasi orqali olingan natijalar qiyosiy tahlili (n=220)

№	Omillar	Tajriba guruhi			p	Nazorat guruhi			p
		n_1=100				n_2=120			
		M1	M2	S		M1	M2	S	
1	Ilmiy fikrlash	10,3	13,6	2,1	0,05	11,1	11,3	1,4	0,14
2	Tanqidiy fikrlash	12,8	14,1	2,9	0,05	12,9	13,1	2,0	0,11
3	Mustaqil fikrlash	12,6	15,5	2,1	0,05	12,8	13,2	2,6	0,20
4	Amaliy fikrlash	11,2	13,4	1,5	0,05	11,9	12,1	2,7	0,14

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi dastur talabalarda ilmiy dunyoqarash xususiyatlariga ta'sir etuvchi

omillarning namoyon etish darajasini rivojlanishiga olib kelishi kuzatilgan. So’rovnomaizning dastlabki “ilmiy fikrlash” omilida ishonchli farqlar qayd etildi (t=-2,3; p≤0,05). Talabalarda muammolarni qanday hal qilish va qarorlar qabul qilish haqida ma’lumot berish uchun xulosalar chiqarish jarayoni, kognitiv jarayonlar hamda tafakkur uslublarining rivojlanganligidan dalolat beradi. “Tanqidiy fikrlash” omilida ham ahamiyatli farqlar kuzatildi (t=-2,7; p≤0,05). Mazkur omilni rivjlanishi talabalardagi ilmiy dunyoqarash sifatlariga, axborotlarni qayta ishlashda faktlarni tahlil qilish, har qanday ilmiy-amaliy ma’lumotlarga sinchikovlik bilan etibor berish kabi sifatlar oshishiga ham olib kelar ekan. Bunda tashqari tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish uchun ularni turli fanlar bo'yicha integratsiya qilish, kasbiy faoliyat bilan o’zaro bog’lash maqsadga muvofiqdir.

“Mustaqil fikrlash” omilida ham sezilarli darajada o’sish bo’lganligini ko’rishimiz mumkin (t=-2,9; p≤0,05). Psixokorreksion dasturdan so‘ng talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, o‘z ustida ishlash, o‘z qarashlarini ifodalashdagi dadillik, muffaqiyatga intilish, faoliyat natijasini baholashga adekvatlikni ortganligini bilan belginaladi.

So’ngi “Amaliy fikrlash” omilida ham ishonchli farqlar aniqlandi (t=-1,9; p≤0,05). Mazkur holat amaliy fikrlash darajasi yuqori bo’lgan o’smirlarda muammoga nazariy jihatdan emas, balki amaliy ravishda yondashish, muhokama davomida mavzuga diqqat etibor qaratish, muammolarni nafaqat nazariy jihatdan balki, amaliy jihatlarini ham tahlil qila olish ko’nikmasiga ega bo’lishadi. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, sinaluvchilarimzda ilmiy dunyoqarash, o‘z ustida ishlash, faoliyatini rejalashtirish ko‘nikmalari ham sezilarli darajada ortganligi kuzatilgan. Nazorat guruhida esa natijalar orasidagi o‘zgarishlar ahamiyatli emasligi aniqlang. Mazkur ko‘rsatkichning o‘ziyoq psixologik trening dasturimizning samaradorlik darajasiniko‘rsatib beradi.

Nazorat guruhlarida esa mazkur mezonlar bo‘yicha yaqqol bir ko‘rinishdagi statistik tafovutlar aniqlanmadi. Olingan empirik ma’lumotlarning ishonchliligi Styudent t-

mezoni bo‘yicha asoslandi. Ushbu tahlillar ko‘lami psixologik trening dasturlarining samaradorligidan dalolat beradi.

XULOSA

Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shaklantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o’rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy-amaliy jihatdan quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ta’lim samaradorligini aks ettiruvchi va nafaqat ta’lim sifatini baholashga qaratilgan, balki ta’limning tashqi va ichki xususiyatlarini ham o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir, chunki u ta’lim sharoitlari va natijalarining xilma-xilligi, talabaning hissasi, shu jumladan o‘quv natijalarining tuzilishini o‘zida namoyon etadi. Ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatida “ilmiy dunyoqarash” ta’lim natijalarini tushunishga aynan mos keladi degan pozitsiyaga asoslanadi, chunki u ta’lim muvaffaqiyatiga yaxlit yondashuvni, o‘quv maqsadlarini baholashni, psixologik, aqliy-aksiologik, axloqiy va dinamik yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi.

Adabiyotlar ro’yhati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 sentyabrdagi O‘RQ – 637-son “Ta`lim to‘g‘risida”gi Qonuni./ lex.uz
1. Дмитриева Е.В. Формирование профессионального педагогического мировоззрения будущего учител я — Автореферат: диссертатsии … кандидата педагогических наук. Волгоград – 2003, 89 С.
2. Nazarov A.M. “Talabalar ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik barqarorligi” Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – B. 2022. – 140 b.
3. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok. dis.... - T., 2005.- 391 b.